

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Sabirova Umida OLIIY TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH MODELI.....	5
2. Fayzieva Farogat MA'LUMOTLAR TO'PLASH JARAYONI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHI SIFATIDA.....	13
3. Mardiyeva Malika XX-XXI- ASRLARDA ISLOM MADANIYATIDAGI GENDER MUNOSABATLARI.....	23
4. Махмудова Малика ОПТИМИЗАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	30
5. Tagaymutatova Gulchehra RAQAMLI TEXNOLOGIYANING INNOVATSION OLIIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.....	38
6. Shukurova Sevara OIV EPIDEMIYASI BILAN KURASHDA KOMPLEKS YONDASHUV TIZIMI.....	44
7. Razzakova Nargis JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'ZGARISH DINAMIKASI.....	51
8. Samadov Shohzod JAMIYATDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV RIVOJIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AHAMIYATI (sotsiologik yondashuv).....	59
9. Kadirov Mirsulton IJTIMOIIY-MADANIY SOHADAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARI.....	66
10. Kasimov Abdumavlon MAHALLIY BUDJET IJROSI USTIDAN DEPUTALIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLARI.....	80
11. Usmonova Rohila AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI.....	87
12. Samadov Shohzod YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALARI (Fuqarolik jamiyati institutlari misolida).....	95

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Samadov Shohzod,

О‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ma’sul xodimi,

Mustaqil izlanuvchi

e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALARI (Fuqarolik jamiyati institutlari misolida)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14187692>

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatning asosiy institutlarining fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy faolligini oshirishdagi o‘rni, davlat va siyosiy tizim, shuningdek, fuqarolik jamiyatining mavjudligi indikatori darajasiga erishish yangi jamiyatlarda qay tarzda sodir bo‘lishi, xususan, Yangi O‘zbekistonda rivojlanish istiqbolini belgilashi prognozlarini tahlil etilgan. Shu bilan birga, aynan ushbu mazmundagi institutlarni rivojlantirishga doir yagona konsepsiya yo‘qligi ko‘p jihatdan ijtimoiy institutlarning o‘zgarish tendensiyalari, uning faoliyati rivoji va transformatsiyalashuvi omillari, mexanizmlarini doimiy o‘rganish va ularning faoliyatida transformatsiyalashuvni fuqarolarning manfaatlarini asosida amalga oshirishning mexanizmlarini aniqlash, rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator muammolar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Muallif, jamiyatda ijtimoiy institutlar, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari, uning shakllari faoliyatidagi o‘zgarishlar, ularning transformatsiyalashuvi jarayoniga nisbatan turlicha qarashlar asosida ta’riflar, shu nuqtai nazardan, avvalo, mutaxassislar tomonidan ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini, ilmiy konseptual asoslari, ushbu jarayonda jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni, xususan, fuqarolik jamiyati va uning shakllariga xos o‘zgarishlarning davlat va jamiyat boshqaruviga ta’siri tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy-siyosiy institutlar, modernizatsion, omillar, fuqarolik jamiyati institutlari, ijtimoiy munosabatlar, transformatsiya, modernizatsiya, takomillashtirish, ijtimoiy tizimi, ijtimoiy ong, sotsiologik tahlil, doimiylik, muntazamlilik, sinergetika, ijtimoiy institutlar, transformatsiya, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, evolyutsiya, ta’sir jarayonlari, davlat, jamiyat, fuqarolar, ijtimoiy ong shakllari, siyosiy mafkura, sotsiologik yondashuv.

Самадов Шохзод,

Сотрудник Олий Мажлиса Республика Узбекистан,

независимый соискатель

e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ (на примере институтов гражданского общества)

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется роль основных институтов общества в повышении социальной и политической активности граждан, государства и политической системы, а также прогнозы

достижения уровня показателей существования гражданского общества в новом обществе, в частности, перспективы развития Нового Узбекистана. При этом отсутствие единой концепции развития институтов в данном контексте во многом обусловлено постоянным изучением тенденций изменения социальных институтов, факторов и механизмов развития и трансформации их деятельности, а также определение механизмов реализации преобразований в своей деятельности исходя из интересов граждан, проанализирован ряд проблем с научной точки зрения, связанных с развитием рассмотренных вопросов. Автор определяет социальные институты в обществе, в частности институты гражданского общества, изменения в деятельности его форм, определения, основанные на различных взглядах на процесс их трансформации в обществе, в частности гражданском обществе, и влияние изменений, характерное для него, его формы по государственному и общественному управлению.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, общественно-политические институты, модернизация, факторы, институты гражданского общества, социальные отношения, трансформация, модернизация, совершенствование, социальная система, общественное сознание, социологический анализ, преемственность, закономерность, синергетика, социальные институты, трансформация, общественно-политические отношения, эволюция, процессы влияния, государство, общество, граждане, формы общественного сознания, политическая идеология, социологический подход.

Samadov Shohzod,
Responsible officer of the Oliy Majlis
of the Republic of Uzbekistan,
Independent seeker
e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

TRENDS OF SOCIAL TRANSFORMATION IN THE NEW UZBEKISTAN (on the example of civil society institutions)

ABSTRACT

The article analyzes the role of the main institutions of society in increasing the social and political activity of citizens, the state and political system, as well as the forecasts of how to reach the level of the indicator of the existence of civil society in new societies, in particular, the prospects for development in New Uzbekistan. At the same time, the lack of a single concept for the development of institutions in this context is largely due to the continuous study of the trends of change of social institutions, the factors and mechanisms of the development and transformation of their activities, and the determination of the mechanisms of implementing transformation in their activities based on the interests of citizens. a number of problems related to development have been scientifically analyzed. The author defines social institutions in society, in particular civil society institutions, changes in the activity of its forms, definitions based on different views on the process of their transformation. social relations in society, in particular civil society and the impact of changes specific to its forms on state and community management.

Key words: New Uzbekistan, socio-political institutions, modernization, factors, institutions of civil society, social relations, transformation, modernization, improvement, social system, social consciousness, sociological analysis, continuity, regularity, synergetics, social institutions, transformation, socio-political relations, evolution, influence processes, state, society, citizens, forms of social consciousness, political ideology, sociological approach.

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy fanlarda fuqarolik jamiyati institutlarining takomillashib borishi hamda transformatsiya jarayonlari doimiy ravishda chuqur tahlil etib borilmoqda. Zero, har bir davlat va jamiyatga xos fuqarolik jamiyati institutlari o'zining rivojlanish va yangilanish (transformatsiya),

o'zgarish, qonuniyatiga ega. Dunyo miqyosida sodir bo'layotgan so'nggi o'zgarishlarning ko'lami hamda axborotlashuv darajasi davlatlarning ijtimoiy tizimi barqarorligi bilan bog'liq bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunda fuqarolik jamiyati institutlarining yangiliklar qabul qilishi va unga tayyorgarligi omili muayyan davlatning siyosiy tizimi, shu asosda ijtimoiy barqarorligi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy tizimning mustahkamligini ta'minlash hamda uni jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lishi omillarini ilmiy, amaliy xususiyatlarini tadqiq etish hamda bu borada yuqoridagi muammo yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqish doimo dolzarb hisoblanadi.

METODOLOGIYA

O'zbekistonda yangi zamonaviy jamiyat qurish e'lon qilingan ekan, uning asosiy yo'nalishi bevosita jamiyatning asosiy institutlarning transformatsiyalashuvini kengaytirish asosida kechishi lozimligi belgilab olindi. "Biz Yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birga barpo etamiz, degan ulug'vor maqsadni o'z oldimizga qo'nganmiz. Bu borada "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda". Ushbu jarayonning yangicha ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy mazmun kasb etishini hisobga olgan holda, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyat institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorligiga doir siyosiy tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunda davlatlar, jumladan, Yangi O'zbekiston oldida turgan muhim ijtimoiy strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Bu boradagi islohotlarning asosiy markazida fuqarolik jamiyati institutlari alohida o'rinni egallaydi. Zero, demokratik davlatlarning detsentralizatsiyalashuvi (nomarkazlashtirish) amalga oshishida ular yetakchi ahamiyat kasb etadi. 1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 1-moddasiga ko'ra, viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdorligi belgilangan. Bu jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining zaruriyatini belgilab beruvchi omillardan biridir.

Rossiyalik sotsiolog olim O.Remiganing fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan amalga oshirilayotgan va mamlakatdagi o'zgarishlarga tezlik bilan moslashuvchi mexanizmga (aholi bilan yaqinlik, aholining ko'p qismi hududlarda istiqomat qilishi va h.k) ega ekanligi bilan har bir demokratik jamiyat, xususan, O'zbekiston misolida zarur boshqaruv instrumenti ekanligini ta'kidlab o'tadi [1, – B. 25].

Transformatsiyalashuv tendensiyalari cheksiz, turli-tuman. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining 1-yo'nalishida O'zbekistonning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarning davlat boshqaruvi, ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan bog'liq jihatlarida quyidagilar alohida ko'rsatilganligi muammoning ahamiyatini yana bir bor ko'rsatib berishga xizmat qiladi:

1. Davlat hokimiyatining bo'linishi tamoyili buzilishi holatlari;
2. Davlat moliya manbalaridan samarasiz foydalanish holatlari;
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;
4. Qonun chiqaruvchi organ faoliyatida yangi yondashuvlarning hamon yetishmayotganligi.

Ko'rinib turganidek, O'zbekistonda davlat boshqaruvin, ayniqsa, fuqarolik jamiyati institutlarini isloh qilish, zamon talablariga moslashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, fuqarolik jamiyati institutlari jamiyatda ijtimoiy nazoratni o'rnatishda katta rol o'ynaydi.

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini yana-da takomillashtirish – demokratik islohotlar samarasida yetakchi o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan, fikrimizcha, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tubdan takomillashtirishda quyidagi mexanizmlarni qo'llash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati qonunlarga muvofiqligini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlari, siyosiy partiyalar hamda NNTlar bilan hamkorligini ta'minlovchi yagona platformani shakllantirish (bunda mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida "jamoatchilik nazorati"ni o'rnatish nazarda tutilyapti – muallif);

2. Sohaga tegishli bo'lgan qonunchilikni zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi normalar bilan to'ldirish va bunda davlat va jamiyat munosabatlaridagi o'zgarishlarni hamda mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni ko'rsatib o'tish;

3. Davlat hokimiyatini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan kompleks yondashuvni amalga oshirish;

4. Mahalliy hokimiyat bilan birgalikda joylardagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga solishda ishtirok etishga xizmat qiladigan fuqarolik jamiyati institutlari va NNTlar salmog'ini oshirish.

Fuqarolik jamiyati institutlarining boshqaruv hamda jamiyat a'zolari hamkorligini ta'minlashga doir mexanizmlarini joriy etish masalasi (transformatsiyalashuv asosida) yangi jamiyat qurish jarayonidagi davlatlar, xususan, Yangi O'zbekiston barqarorligining asosiy kafolati bo'lib xizmat qiladi. "O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta'minlash ko'p jihatdan siyosiy jabha, ayniqsa, davlat boshqaruvining ijtimoiy sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir" [2, – B. 86].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zgarib borayotgan ijtimoiy munosabatlarda fuqarolik jamiyati institutlarining transformatsiyalashuvi masalasi har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Davlatlarga xos demokratiya tamoyillari darajasini belgilashda (ayniqsa, yangi islohotlar davrida) fuqarolik jamiyati institutlarining siyosiy qarorlar qabul qilish, davlat va jamiyat munosabatlarini institutsional tartibga solish hamda shaxslar (fuqarolar) qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lishi ta'minlanishi bilan asoslanadi" [3, – C. 45].

Yana bir sotsiologik qarashlarga ko'ra, "davlat va jamiyatlarga xos yangilanishlar qay tarzda kechishi, davlat boshqaruv tartibotining mustahkamligi uning vakillik demokratiyasining fuqarolik jamiyati institutlari asoslari bilan izohlanadi" [4, C. 85].

Yana bir ilmiy qarashga ko'ra, "fuqarolik jamiyati institutlarining yangi jamiyat (davlat)ni shakllantirishdagi asosiy ishtiroki darajasini "moderator" funksiyasini bajargan holda, tizimning boshqa barcha elementlarini yagona bir butunlikka birlashtirishda ko'rinadi" [5, №. 12].

Bizning fikrimizcha, yangilanayotgan jamiyatlarda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy faolligi oshishi fonida kechsa, ushbu jamiyatdagi transformatsion jarayonlar o'z samarasini bera boshlaydi.

Bu o'rinda jamiyat institutlarining yana bir asosiy vazifasi – jamiyatda turli tartibli va tartibsiz qarashlar, manfaatlarni milliy asoslar negizida yakdillashtirish bilan ham muhimdir. Bu o'ziga xos jamiyat qonuni. Bu o'zgarishlar davlatning ichki va tashqi imkoniyatlari, uning a'zolari ehtiyojlari darajasi, shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Yosh olim K.Mirzaaxmetovning fikricha, "Davlat va jamiyat munosabatlari tarixiy jarayonlar davomida doimo o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega". Davlat boshqaruv tizimi ijtimoiy hayotning o'zi kabi tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarib, yangilanib, takomillashib boradi [6, – B. 81].

Jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining transformatsiyasi muqarrar ijtimoiy jarayon. Boisi, tezlashib borayotgan axborotlashuv hamda buning natijasida fuqarolarning tizimga, ijtimoiy ehtiyojlarini amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoji, talabi oshib boradi. Bu jamiyatda turli institutlarning mavjud bo'lishi, fuqarolarning fikr va qarashlarini o'zida mujassam etishi asosida siyosiy tizimni mustahkamlash, uni yangicha qarashlar bilan to'ldirib borish asosida isloh qilinishi lozim. S.Savin "O'zgarib borayotgan jamiyatda barqarorlik" mavzusidagi tadqiqotida jamiyatdagi barqarorlikning

obyektiv omillari qatoriga aynan fuqarolik jamiyati institutlarining turg'unligi va davlatning hokimiyatlarga bo'linishi tizimining samaradorligini kiritadi [7, – C. 29].

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yanada takomillashgan ko'rinishini shakllantirish maqsad qilingan. Bu jarayon ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog'liq. Boisi, zamonaviylashuv jarayoni davlatlar va jamiyatlar o'rtasidagi turli tarzda kuzatiladigan hamkorlik ko'rinishi va yo'nalishida kechadi. Ya'ni aytmoqchimizki, jamiyat hayotidagi transformatsion o'zgarishlar uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu jarayonning imkoniyatlarini va istiqbollarini aniqlash, jamiyatda targ'ib etish, fuqarolarning faolligini oshirish negizida ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish vazifasi siyosiy institutlar zimmasiga tushadi. Boisi, zamonaviy jamiyat qurish – yangicha qarashlar, siyosiy ta'sir bilan birga kechuvchi hodisadir. Zamonaviy jamiyatlar shakllanishi bilan erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi ulkan tafovutning mavjudligi bilan tavsiflanib, birinchi galda, yangi rivojlanishning shakllanishi bilan, ikkinchidan, o'z-o'zini boshqaruvchi fuqarolik jamiyati institutlari salohiyatidan foydalanish muammolari bilan birgalikda kechadi [8, №.1 (41)].

Fikrimizcha, fuqarolik jamiyati institutlari yanada faollashtirish va zamon talablariga moslashtirishda kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar bor, ularni aniq belgilab, uning ishlash mexanizmlarini aniqlash maqsadga muvofiq va ular quyidagilardir:

1. Fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirish asnosida, mahalliy boshqaruv tizimini isloh qilish, jumladan, hokimlarning to'g'ridan-to'g'ri saylanishini joriy qilish, ixcham, professional mahalliy kengashlarni shakllantirish hamda hokimlarning xalq va mahalliy kengashlar oldidagi hisobdorligini amalda ta'minlashni shu kunlarda sodir bo'layotgan voqealarning yechimi sifatida ko'ramiz;

2. Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish orqali ijtimoiy nazorat o'rnatiladi va mahalliy boshqaruvdagi rahbarlar markazdan tayinlanishi kerak emas, ko'proq hududlarda shakllangan, liderlardan (aslida mahalliy boshqaruv organi faoliyatini takomillashtirishning asosiy sharti shu yerda) bo'lishi lozim. Bunga bosqichma-bosqich o'tilishi kerakligi ta'minlanadi.

Ammo ayni paytda bunday ko'lamdagi va riskdagi konstitutsiyaviy islohotlarni birdaniga amalga oshirishga hech kim tayyor emas. Bu kamida 3-5 yillik tayyorgarlikni, puxta-pishiq tadqiqotlarni talab qiladi. Lekin bu islohot baribir kerak. Bu ijtimoiy transformatsiya hodisasi sifatida asta-sekin amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Fikrimizcha, aholining, ayniqsa, joylardagi fuqarolarimizning kayfiyatini, ularning norozilik darajasini o'rganadigan mustaqil va muqobil institutlar kerak. Ular xoh yopiq, xoh ochiq ishlasin, hukumatga u yoki bu tuman, viloyatdagi norozilik kayfiyati haqida tahliliy axborot taqdim etib borishi kerak. Xalq qabulxonalari ham xuddi shu vazifani bajarishlari kerak edi, aslida. Ko'rib turibmizki, ular ham ba'zida haqiqiy holatni bermayapti. Shuning uchun mamlakatda ichki siyosatni tahlil qiladigan mavjud institutlar negizida yoki "Ijtimoiy fikr"ga muqobil ravishda mustaqil sotsiologik tadqiqotlar institutlari faoliyatini yo'lga qo'yishning vaqti keldi. Bugungi kunda hatto Rossiyada avtoritar boshqaruv holatida nufuzli sotsiologik tadqiqot institutlari federal hukumatga joylardagi muammolarni oldindan tahlil qilish, ularni hal qilishga, kerak bo'lsa, markazdan resurs va boshqa yordam ajratish borasida qarorlar qabul qilishga zamin yaratib kelayapti.

Tan olish kerak, yangi jamiyatlarda fuqarolik jamiyati institutlarining transformatsiyalashuvi tendensiyasi ko'p qirrali ahamiyat kasb etadi. Zamonaviylashuv va globallashuv munosabatlarida siyosiy institut sifatida davlat (hukumat)ning meta-institut sifatida boshqa institutlar va ularning o'zaro aloqalari bilan bog'liq holda markaziy boshqaruvchi va integratsiya qiluvchi sifatidagi roli asosiy o'rinni egallaydi. Yangilanishlar davomida, xususan, O'zbekistonda zamonaviylik munosabatida siyosiy institutlarning asosiy vazifasi sifatida talqin etiladigan insonlarning yagona maqsadi, shuningdek, davlatga ishonch, moyillik hissini shakllantirish bilan effektivligi nuqtai nazaridan "g'oyalar markazi" ("aql markazlari" ham) vazifasini bajarib beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yangilanishlar davomida, xususan, O'zbekistonda zamonaviylik munosabatida fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy vazifasi sifatida talqin etiladigan insonlarning yagona maqsad, shuningdek, davlatga ishonch, moyillik hissini shakllantirish bilan effektivligi nuqtai nazaridan g'oyalar, mafkuralar bazasi vazifasini bajarib beradi. Shu bilan

birga, transformatsion jarayon o'zida faqat ijobiylik bilan birga siyosiy, mafkuraviy qarama-qarshiliklar ko'rinishidagi ijtimoiy munosabatlarni ham ifodalaydi. "Zamonaviy jamiyatlarda fuqarolik jamiyati institutlarining yana bir boshqaruvchanlik va ta'sirchanlik darajasi – ularning qay tarzda tashkil topganligi bilan ifodalanadi, shu bilan birga, ularning jamoaviy tanlov, qarashlar asosida tashkil topishi hisoblanadi" [9, – С.13]. Zero, har bir jamiyatda ijtimoiy nazorat institutlarining bo'lishi, ijtimoiy ixtiloflar darajasini kamaytirishda, oldini olishda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Маҳаллий бошқарув тизимини модернизация қилиш: халқаро тажриба ва Ўзбекистондаги ислохотлар: халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент. 2017. – Б. 25.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 86.
3. Шумпетер Й. Капитализм, социализм и демократия. – М.: Экономика, 1995. – С. 45.
4. Даль Р. О демократии. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С. 85.
5. Знаменский Д.Ю. Системно-динамический подход к исследованию процесса формирования и реализации государственной политики // Теория и практика общественного развития. 2014. № 12.
6. Мирзаахмедов К. Ўзбекистонда давлат бошқаруви жараёнларини демократлаштириш эволюцияси. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (Phd) даражасини олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 81.
7. Савин С.Д. Политическая стабильность в изменяющемся обществе: автореф. дис. канд. социологических наук. – Санкт-Петербург, 2003. – 29 с.
8. Артемов В.А. Свобода и нравственность: нравственно-философский и правовой аспекты // Вестник Российского философского общества. – М., 2007. – №1(41).
9. Сирл Джон, 1995, Конструкция социальной реальности, Лондон: Penguin. – С. 13.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000